SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son S/8
2023

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V3SI8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/8 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

**М У Н Д А Р И Ж А**

## 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ


*Намазова Умида Нормуродовна*
ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ)........ 10-15

*Эрназаров Туйгун Раджабович*
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ........ 16-21

*Хужаниязов Уктам Ешбаевич*
“ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ҲУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ........ 22-27

*Шаимкулов Азамат Холмуратович*
ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ........ 28-38

*Муродов Ҳалим Салимович*
ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР........ 39-46

*Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли*
ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН........ 47-51

*Shonazarova Nargiza*
TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR........ 52-57

*Axmadova Nafisa Axmad qizi*
OʻZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI........ 58-64

*Qodirova Ra’no Mamirjonovna*
OʻZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING OʻQITILISHI........ 65-70

*Yunusxoʻjayev Habibulla Zafar gʻoʻli*
SHARQDA KUCHLI IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI TARIXI........ 71-75

*Нарбеков Абдикамил*
НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ........ 76-80

*Alimova Gʻunchaxon Baxadirovna*
JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA........ 81-85

*Jumanazarova Fotima*
XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI........ 68-93


## 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ


*Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich*
PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW........ 94-100

*Hamrayev Amirzoda*
ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKILOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI ........ 101-109

*Хайтбоева Нигора Бакмататовна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА МАРКЕТИНГ СТРАТЕГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИ ........ 110-119

*Xalilov Qahramon Qurbonboyevich*
MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERINI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI ........ 120-132

*Махмудов Турсунпулат Давронович*
ИНВЕСТИЦИЯ МАНБАЛАРИНИНГ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ ........ 133-144

*Ishchanova Salomat*
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI ........ 145-150

*Мўйдинова Зилола Вохид қизи*
ЧЕГАРА БОЖХОНА ПОСТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА "АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ЙЎЛОВЧИ ҲАРАКАТИ" МОБИЛ ИЛОВАСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 151-158

*Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon*
TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI ........ 159-164

## ***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Саидова Камола Усканбаевна*
ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ ........ 165-173

*Omonturdiyev Orzu G'afforovich*
INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI ........ 174-179

*Очилова Гузаль Араловна*
ЮКСАК МАЪНАВИЯТ–МАНФААТЛАР БИРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ........ 180-185

*Nurmatova Umida Jalolidinovna*
MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI ........ 186-192

*Vafayeva Dilafruz Artikovna*
AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK ........ 193-198

*Karimov Zafarbek Ataboyevich*
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI ........ 199-202

*Bozorova Ro'zigul Sharofovna*
MEHRSIZLIK HODISASINI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR ........ 203-212

*Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna*
DINIY MANBALARDA IJTIMOIY HAMKORLIK O'OYALARI ........ 213-218

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*
TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI ........ 219-224

*Dehqonov Behzod Baxtityorovich*
YANGI OʻZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAGʻRIKENGLIK GʻOYALARINI OʻRNI VA AHAMIYATI ....................225-230

*Abdullayeva Firuza Sharipovna*
NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI ....................231-236

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING “AVORIF UL -MAORIF” ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN GʻOYALAR ....................237-243

*Ибрагимов Солижон Эргашович*
АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ” ТАҲДИДИ....................244-251

***10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***

*Qodirova Mukaddas Togʻayena*
BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI....................252-257

*Abdullayev Ikramjon Xashimdjanovich*
DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE ....................258-265

*Hamroyeva Sharifa Shukur qizi*
TARJIMADA MILLIY SOʻZLARNING BERILISHI (OYBEKNING “NAVOIY” ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA) ....................266-271

*Olimova Gulfiza Muradullayevna*
BADIIY SAN’AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QOʻLLANILISHI....................272-281

*Айниддинов Иқрориддин Шарифович*
АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ....................282-287

*Turaeva Dilfuza Daminovna*
OʻZBEK TILIDA OBRAZLI SOʻZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ....................288-295

*Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna*
LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BOʻLISHI....................296-305

*Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli*
LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ....................306-311

*Isroilova Manzura Jamolovna*
FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOMMUNIKATIV TA`SIRI XUSUSIDA ....................312-317

*Шамақсудова Саодат Хидоятовна*
МАССМЕДИА АСПЕКТИНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР....................318-324

*Шатова Ирина Юрьевна*
ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ....................325-330

*Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna*
FRAZEOLOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI ....................331-335

*Alimjanova Shohsanam Azamat qizi*
KOʻP MAʻNOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI ....................336-340

*Турниязова Шахноза Нигматовна*
МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР ....................341-347

*Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich*
INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI ....................348-352

*Aminova Dilnoza Xikmatullayevna*
THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY ....................353-358

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи*
ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ ....................359-365

*Mamataliyev Toʻlqin Xushmamat oʻgʻli*
OʻZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI ....................366-378

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Saidov Jur'at Sodirovich*
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....................379-384

*Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,*
TEXNIK OLIY OʻQUV YURTLARIDA OOʻZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI ....................385-390

*Таджиходжаева Эльвира Рашидовна*
ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ ....................391-396

*Тўрахонова Барно Турсунбой кизи*
БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ ....................397-406

*Ashurova Sitora Erkinovna*
USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION ....................407-412

*Каримжонова Мунаввар Ибрагимовна*
ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида) ....................413-421

*Xamirayev Rustam Abdirazakovich*
VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH ....................422-426

*Хашимова Масуда Камилжановна*
КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК ....................427-435

*Бердикулова Насиба Эркинжоновна*
СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ....................436-442

*Saidnazarova Gulshan Bolta qizi*
AL-BUXORIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O‘RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ........................................................................................................................................443-448

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 8/S (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*07.00.00-Тарих фанлари*

**Jumanazarova Fotima**
Oʻzbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
Fan va texnologiyalar universiteti oʻqituvchisi

## XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xotin qizlar bandligini ta'minlash tizimining shakllanish jarayoni va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. xotin-qizlar masalasining umuminsoniy va milliy jihatlari, ular huquqlarining ta’minlanishiga oid yangicha yondashuv va qarashlar faylasuf va huquqshunos sotsiolog olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ham qisman oʻrganilgan.

**Kalit soʻzlar:** oila, bandlik, xotin-qizlar tashkilot, ijtimoiy, tadbirkorlik, ayollar, talim

**Jumanazarova Fatima**
Researcher of the National University of Uzbekistan
Teacher of the University of Science and Technology

## FORMATION OF THE PROCESS AND STAGE OF DEVELOPMENT OF THE WOMAN'S EMPLOYMENT SYSTEM

**Abstract:** This article analyzes the formation process and development stages of the system of providing employment for women and girls. universal and national aspects of the issue of women, new approaches and views on the provision of their rights are also partially studied in the research works of philosophers and legal sociologists

**Key words:** family, employment, women's organization, social, entrepreneurship, women, education

**Джуманазарова Фатима**
исследователь Национального университета Узбекистана
Преподаватель Университета науки и технологий

## ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН

**Аннотация.** В данной статье анализируется процесс становления и этапы развития системы обеспечения занятости женщин и девушек. Универсальные и национальные аспекты проблемы женщин, новые подходы и взгляды на обеспечение их прав частично изучены в исследованиях философов и социологов-юристов.

**Ключевые слова:** семья, занятость, женские организации, социальное, предпринимательство, женщины, образование

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N13

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, samarali ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, biznesni tashkil etish va

yuritish shartlarini baholashning zamonaviy mezonlari tizimini joriy etish, shu asosda mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish yoʻlida barqaror taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratildi. Aholi farovonligi, birinchi navbatda, yangi ish oʻrinlarining mavjudligi, bandlikning oshishi bilan tavsiflanadi. Shunday ekan, xotin-qizlar bandligi muammosini oʻrganish davr talabi hisoblanadi. Chunki davlatning iqtisodiy taraqqiyoti aholining bandligi va ularning munosib turmush darajasi bilan baholanadi. Xotin-qizlar bandligi tushunchasi va uning mohiyatini oʻrganishda birinchi navbatda “bandlik” tushunchasi va uning mamlakatimizdagi xotin qizlarga tegishli ulushini tahlil etish kerak boʻladi. Bandlik tushunchasi yoki aholini ish bilan taʼminlash deganda mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashgʻul boʻlishi, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bogʻliq boʻlgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadiga ega boʻlgan faoliyat tushuniladi. Bandlik-bu mehnat va mehnatdan foydalanish bilan aniqlab boʻlmaydigan ijtimoiy takror ishlab chiqarish toifasi. U iqtisodiy faol aholini ishlab chiqarishning moddiy omillariga nisbatan tavsiflaydi va odamlar oʻrtasidagi ularning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtiroki haqidagi munosabatlarni aks ettiradi. Shaxsiy xodim darajasida bandlik uning ish joyiga ega ekanligini anglatadi va shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va daromad (mehnat daromadi) olish bilan bogʻliq faoliyat sifatida belgilanadi. Anʼanaga koʻra, bandlik deganda ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etish tushuniladi. [1]

Ayollarga kelsak, "ikki tomonlama bandlik" tushunchasi koʻpincha ishlatiladi. Bu ayollarni oilaviy va maishiy sohada va jamoat ishlab chiqarishida ish bilan taʼminlashni anglatadi. Qayd etilganidek, soʻnggi uch yil mamlakatimizda xotin-qizlarning oʻz biznesini tashkil etish va yuritish koʻnikmalarini shakllantirish, biznes gʻoyalarini tayyorlashda konsultativ yordam berish, ishbilarmonlik tashabbuslarini yanada qoʻllab-quvvatlash borasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga fidoiy, ishbilarmon ayollarga oʻz biznesini tashkil etishda zarur maslahatlar berish va amaliy yordam koʻrsatishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. 8 noyabr 2022 yil 650-sonli hukumat qarori bilan Mahallalarda xotin-qizlarning bandligini taʼminlash va salomatligini mustahkamlash markazlari toʻgʻrisida nizom tasdiqlandi. Bugungi kungacha ushbu Nizomiga koʻra, har bir mahallada xotin-qizlarning bandligini taʼminlash va salomatligini mustahkamlash markazlari tashkil etilib kelmoqda. Jizzax viloyati markazlarda bitta ijtimoiy loyiha doirasida 20 nafargacha xotin-qizlarning doimiy bandligini taʼminlash maqsadida bandligi taʼminlanadigan har bir nafar ishsiz xotin-qiz uchun tadbirkorlarga 3 million soʻmgacha davlat granti ajratildi. Shuningdek, davlat granti “Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga,shuningdek “Ayollar daftari”ga kiritilgan, ishsiz, ayniqsa, qishloq joylarda bola tarbiyasi bilan shugʻullanayotgan, xorijiy mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan, nogironligi boʻlgan mehnatga layoqatli ishsiz, norasmiy bandlikni qisqartirish maqsadida kundalik mehnat faoliyati bilan shugʻullanishga sharoit yartildi. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar bu muammolarni birmuncha boʻlsada bartaraf etishga yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Ammo shu bilan birga bir qator muammolar mavjud-ki, ular xususan, aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini himoya qilish, ularni ish bilan taʼminlash bilan cheklanib qolmoqda. Aholining, jumladan, xotin-qizlarning iqtisodiy faol qatlami esa toʻlaligicha bandligi taʼminlanmadi. Mamlakatimizda xotin-qizlar bandligini taʼminlash masalasi davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Mustaqillik tufayli Oʻzbekiston iqtisodiyotida tub islohotlar amalga oshirilmosda. Iqtisodiyot tarkibida xilma-xil mulkchilikka asoslanuvchi xoʻjalik yuritivchi subʼektlar faoliyat yuritib kelmoqda. Ayniqsa oilaning jamoaviy mulki

negizida tashkil etilgan oilaviy tadbirkorlikning ahamiyati tobora ortib borayapti. Bunda, xotin-kizlarni ish bilan band qilishdek dolzarb masalani hal etishda ushbu faoliyat turining ayniqsa ahamiyati beqiyos ekanligini koʻrish mumkin. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "…davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning oʻrni va mavqeyini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning eng ustuvor yoʻnalishlaridan biridir".[2] Davlatimiz rahbari deyarli har bir maʼruzalarida bu masalaga toʻxtalib, ularni talab yuqori boʻlgan kasblar va tadbirkorlikka oʻqitish, biznesini yoʻlga qoʻyishda moliyaviy qoʻllab-quvvatlash lozimligini taʼkidlamoqda. Jizzax viloyatida bugungi kunda 517 ming ayoldan 142922 nafari ogʻir turmush sharoitida yashaydi. Ishsiz ayollarning umumiy soni 10 235 kishini tashkil qiladi. Bugungi kunga qadar amalga oshirilgan ishlar tufayli ogʻir turmush sharoitida yashayotgan 381 nafar ayol ish bilan taʼminlandi.

Batafsil tahlil va tadqiqotlar natijasida mintaqada 4000 tagacha ish oʻrni yaratilishi mumkinligi taxmin qilindi. Xotin-qizlar uchun munosib ish oʻrinlari yaratish imkoniyatlarini oʻrganish natijalariga koʻra, 9 yoʻnalish boʻyicha takliflar tayyorlandi, - deydi Omon inspektor Saidov. -Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturiga muvofiq soha hududida ishga tushirilgan korxonalarda 285 ish oʻrni yaratildi. Ushbu korxonalarda boʻsh ish oʻrinlari hisobi ham mavjud.Hunarmandchilik hisobidan 29 ta, oilaviy tadbirkorlik hisobidan 70 ta, homiylar koʻmagida chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, quyonchilik, issiqxonalar qurish hisobiga 271 ta ish oʻrni yaratilgani koʻrsatilgan.Bundan tashqari, tarmoqlar oʻz-oʻzini ish bilan taʼminlash tizimini keng joriy yetishga alohida eʼtibor qaratmoqda.Tahlillarga koʻra, ogʻir ijtimoiy vaziyatda boʻlgan ayollarning 81 nafari 30 yoshgacha boʻlgan ayollardir. Ushbu toifadagi ayollarni ish bilan taʼminlash, ularni oʻz kasbiga oʻrgatish ustuvor vazifadir. Ayollarning biznes sohasidagi loyihalarini qoʻllab-quvvatlash hamda joylarda aniqlangan xotin-qizlar muammolarini hal etish uchun byudjetdan qoʻshimcha ravishda 1 trillion soʻmdan ziyod mablagʻ yoʻnaltiriladi. Buning uchun "Xalq banki" tomonidan joylarda xotin-qizlarni tadbirkorlikka oʻqitish, biznesga oid namunaviy rejalarini ishlab chiqish va kredit olishda ularga amaliy yordam koʻrsatishning yangi tizimi joriy etiladi.» deb taʼkidlagan edi.[3] Ushbu dolzarb vazifani hal etishda oilaviy tadbirkorlikdan foydalanish muhim sanaladi. Oilaviy tadbirkorlik erkin, ixtiyoriy, oila aʼzolarining umumiy yoki shaxsiy tashabbusiga asoslanadigan iqtisodiy faoliyatning bir turidir. Bu faoliyat toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasining 2012 yilda qonuni xam qabul qilindi. «Oilaviy tadbirkorlik toʻgʻrisida»gi qonunning maqsadi foyda (daromad) olishdan iborat ekanligi belgilab qoʻyilgan. Shu nuqtai-nazardan qaralsa, oilaviy tadbirkorlik bir nechta dolzarb masalalarni hal eta oladi: Ish bilan band etishni; Foyda(daromad) olishni; Kambagʻallikdan chiqishni. Fikrimizni, Navoiy viloyati xotin-qizlari misolida davom ettiramiz. Jumladan, viloyatning ishchixizmatchilari umumiy sonida ayollarning ulushi 2017 yilda 37,3 foiz, 2018 yilda 36,5 foizni tashkil etgani xolda, tegishli ravishda Andijonda 46,4; 46.6 foizni, Namanganda 45.5; 46.1 foizni, Fargʻonada 47.5; 48,2 foizni tashkil etadi. Bunga, qishloq hududlari nuqtai nazaridan qaralsa, ahvolni tushunish juda oson. Demoqchimiz, mehnatga layoqatli yosh xotin-qizlar boʻyicha asosiy ishsizlar qishloq joylarida boʻlib, yosh oilalar muammolarining koʻpligi va qashshoqligi ham shundan. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev boshchiligida 2020 yilning 18 martida oʻtkazilgan videoselektorda aytilganidek «Yurtimizda 22 mingga yaqin xotin-qiz ogʻir turmush sharoitida yashamoqda. Ular kam taʼminlangan, ishsiz, uy-joyga muhtoj va nogironligi bor ayollar boʻlib, har birining muammosiga individual yondashuv talab etiladi.»Iqtisodiy faollik deganda aholining mehnat

qilishga layoqati boʻlgan va oʻz xohishi bilan mehnat qilishga doimo tayyor turgan, sogʻlom dunyo qarashga ega boʻlgan qatlamning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi pozitsiyasi tushuniladi. Iqtisodiy faollik darajasi esa iqtisodiy faol aholining tegishli yoshdagi aholining umumiy sonidagi foizlarda hisoblangan ulushi sifatida aniqlanadi. Masalan, 2020-yilda respublika iqtisodiyotda aholining 13321200 nafari, jumladan xotin-qizlarning 5510400 nafari ish bilan band boʻlgan. Bu respublikamizning oʻsha paytdagi mehnat salohiyatini tashkil etgan.Xotin-qizlarning iqtisodiy faol koʻrsatkichi 2007-2022 yillar oraligʻidagi davr oʻrganilganda ularning iqtisodiy faollik koʻrsatkichi oshganligini koʻrishimiz mumkin.[5]

Oʻzbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi bilan bogʻliq munosabatlarda, jumladan, ularning bandligini taʼminlashda nodavlat notijorat tashkilotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki davlatimiz bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat davlat, balki nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatiga ham keng imkoniyatlar bergan. Bu tashkilotlarning faoliyati aholini, jumladan, xotin-qizlarni huquqlarni himoya qilishga, ularning bandligini taʼminlashga qaratilgan.Jamiyat taraqqiyotida bevosita ayollarning oʻrni muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Oʻzbekiston mustaqilligining ilk yillaridan boshlab ayollarni jamiyatda teng huquqli ravishda faoliyat yuritishlari barcha qonun hujjatlari orqali taʼminlab qoʻyildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq respublikamizda ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini shakllantirishga koʻmaklashayotgan ayollar tashkilotlarining muayyan tizimi yaratilgan. Ushbu tizimning asosini Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasi tashkil etadi. Xotin-qizlar qoʻmitasi 1991 yiln 23 fevralda tashkil etilgan boʻlib, Oʻzbekistondagi eng faol va keng miqyosli (ham geografik, ham aʼzolari soni boʻyicha) jamoat birlashmalaridan biri hisoblanadi. Xotin-qizlar qoʻmitasining asosiy maqsadi jamiyatda iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni hayotga tatbiq etish jarayonlarida xotin-qizlarning faol ishtirokini taʼminlash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishida xotin-qizlarning faol ishtirokini taʼminlash, onalik va bolalikni muhofaza etish, mustahkam oilalarni barpo etish, sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, xotin-qizlarni turli yot oqimlar taʼsiridan himoya qilish hamda maʼnaviy kamolotini yuksaltirishdan iboratdir Qoʻmita qoshida xotin-qizlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda turli-tuman professional va ijodiy uyushmalar faoliyat koʻrsatadi.

Jumladan, “Tadbirkor ayol”, “Olima”, “Sogʻlom avlod uchun”, “Sharq ayoli” kabi tashkilot va xalqaro jamgʻarmalar faoliyat yuritmoqda.Bugungi kunda Respublikada ayollarning jamiyatdagi faolligini oshirish, barcha sohalarda erkin faoliyat yuritishlarini taʼminlashda davlat tomonidan ijobiy ishlar amalga oshirilayotganini koʻrish mumkin. Shuni taʼkidlash lozimki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida ham bu masalaga eʼtibor qaratilib, jumladan, 2020 yilda 5,5 ming nafar xotin-qizning kichik biznes yoʻnalishidagi loyihalariga 100 milliard soʻm miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Bundan tashqari, 1 ming 576 nafar xotin-qizga yangi uy-joylarga ega boʻlishi uchun byudjet hisobidan boshlangʻich badal toʻlab beriladi Islohotlarni amalga oshirishda davlat bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlar ham oʻz oʻrniga ega hisoblanadi.tashkilotlari faoliyat koʻrsatmoqda. Oʻzbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari toʻgʻrisida”gi qonuni asosida, shuningdek, davlat tomonidan grant mablagʻlari bilan qoʻllab-quvvatlash natijasida kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar, faxriylar, nogironlar, fuqarolar yigʻinlari, ilmiy-texnik, madaniy-maʼrifiy markazlarning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda hokimiyat organlari bilan hamkorligi yanada

faollashib borayotir. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi. Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi mablagʻlari ularning faoliyatini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda. Oʻtgan yili jamoat fondi tanlovida viloyatdan 40 nodavlat tashkilot oʻz loyihalari bilan ishtirok etib, ulardan 14 tasi grant sohibi boʻldi. [6] Grant mablagʻlaridan samarali foydalanayotgan bir qancha ijtimoiy xizmat koʻrsatish markazlari aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlari, xotin-qizlar, nogironlar, yoshlar va odam savdosidan jabrlangan amalga oshirayotir. Jumladan, nodavlat tashkilotlar tomonidan xotin-qizlar va yoshlarni kasb-hunarga oʻrgatish, ularda tadbirkorlik koʻnikmalarini shakllantirish kabi dolzarb masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Masalan, “Qalb nuri” markazi viloyatning sakkiz tumanida oʻquv kurslari ochib, kam ta’minlagan oilalar vakillari boʻlgan xotin-qizlarni tikuvchilik, qandolatchilik, pazandalik, sartaroshlik kasblariga bepul oʻqitishni yoʻlga qoʻydi. Jizzax shahar “Nogironlar” jamiyatining kompyuterga oʻrgatish kursida jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlar bepul tahsil olmoqda. Ayollarning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy holati mustaqillikning dastlabki yillarida ogʻir ahvolda ekanligini koʻrish mumkin. 1991-1995 yillar mobaynida ish oʻrinlarini qisqartilishi natijasida respublikada ishsiz qolganlarni 65% xotin-qizlarni tashkil yetardi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotisharoitida bu koʻrsatgich qishloq joylarda yuqori boʻlib qoldi. Ishsizlikning asosiy sababi xotin-qizlarni kerakli mutaxassislik boʻyicha kasbga va yetarli malakaga ega emasligi edi. Mehnat bozorida bu erkaklarga nisbatan ayollarni ishsizligini ortishiga sabab boʻldi. Natijada ayollar asosan uy mehnati bilan shugʻullanishga majbur boʻldilar. Butun dunyoda boʻlgani kabi Oʻzbekistonda ham ayollarning iqtisodiy faolligi erkaklarnikidan past. Ayollarning oʻrtacha ishsizlik darajasi erkaklarga nisbatan 1,5 barobar yuqori boʻlgan. 2021 yil oxiriga kelib, bu koʻrsatkich ayollar orasida 41,3% va erkaklar orasida 56,9% ni tashkil etdi. Oʻzbek ayollarining mehnat bozoridagi iqtisodiy faolligi 30 yoshdan boshlanadi. Buning sababi shundaki, kirishning oʻrtacha nikoh yoshi 22 yosh boʻlib, kamida 2 yillik tugʻruq ta’tilidan keyin ayollar ishga qaytadi va qisqa vaqtdan keyin ikkinchi tugʻruq ta’tiliga ketishadi.

Shunday qilib, deyarli 30 yoshda ayollar ongli ravishda martaba oʻsishi bilan shugʻullana boshlaydilar. Bolalar salomatligi holati tufayli tez-tez tugʻruq ta’tillari va kasallik ta’tillari ish beruvchilar orasida ayollarning potensial xodim sifatida jozibadorligini kamaytiradi. Erkaklarning potensial xodim sifatida afzalliklari ular tugʻruq ta’tiliga chiqmasliklari (hatto tugʻruq ta’tiliga chiqish uchun qonuniy huquq mavjud boʻlsa ham), ular ishda qolishlari mumkin, boshqa mintaqalarga xizmat safariga yuborishda hech qanday toʻsiqlar yoʻqligidan iborat. Masalan, Jizzax viloyatining 8 ta tumanidagi vaziyat tahlil qilinganda 141166 nafar ishga yaroqli ayollarning 62,132 nafari yoki 44% ishsiz edi. Ularning 18% tugʻruq ta’tilidan keyin ishga qaytolmasligini bildirishdi. Respublika xotin-qizlar qoʻmitasi va “Istiqbolli avlod” NNT hamkorligida 2009 yilning 5 oyi mobaynida 65 nafar ayolni oʻz vataniga qaytishiga yordam berilgani, odam savdosidan jabrlangan 201 nafar ayoldan 164 kishiga psixologik yordam, 127 kishiga tibbiy yordam, 187 kishiga huquqiy yordam, 67 kishiga ijtimoiy yordam koʻrsatilgani, 63 nafar ayolga kasb-hunar oʻrgatilgan, 69 nafari esa ishga joylashtirilgan. Mehrimiz sizga” ayollarni qoʻllab-quvvatlash Markazi mutaxassislari 422 nafar ayolga psixologik, huquqiy, tibbiy, ijtimoiy yordam berishdi. Ishonch telefoniga boʻlgan qoʻngʻiroqlar umumiy soni 1201 tani tashkil etgan. Markaz huquqshunosi 7 ta sud jarayonida advokat sifatida qatnashib xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilgan.Oʻzbekistonda mazkur holatni bartaraf etish maqsadida 1991 yildan boshlab amaliy ishlar olib borilganiga qaramay, yuqoridagi holatni bartaraf etish

imkoni ancha kam hisoblanardi. 1991 yil 25 fevral Respublika Xotin-qizlar kengashining II Plenumida boʻlib oʻtadi va ayollarning ijtimoiy, fuqarolik, madaniy va iqtisodiy huquqlarini himoya qiluvchi ilk jamoat tashkiloti Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasi tashkil topadi.

Bu oʻz navbatida Respublika xotin-qizlari uchun juda katta imkoniyat eshiklarini ochib berdi. 1991 yil 21 iyunida adliya idoralaridan birinchi nodavlat notijorat tashkilot hisoblangan Oʻzbekiston ishbilarmon ayollari "Tadbirkor ayol" assotsiatsiyasi roʻyxatga olinadi. Aynan shu yili Xotin qizlar qoʻmitasi ham adliya organlaridan roʻyxatdan oʻtadi. Shundan soʻng uchinchi yirik nodavlat notijorat tashkilotlardan biri boʻlgan Oʻzbekiston olima ayollari "Olima" uyushmasi roʻyxatga olinadi. Aynan shu "Tadbirkor ayol" uyushmasi tomonidan 2017 yili Jizzax viloyati boʻlimi tomonidan xotin-qizlar, kasb-hunar kollejlarini bitirgan qizlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, hunarmandlikni va umuman olganda bandligini taʼminlash dasturi doirasida 32,2 ming, jumladan, xotin-qizlar uchun 16,3 ming ish oʻrni yaratish belgilangan. Ushbu dasturni amalga oshirishda "Tadbirkor ayol" Oʻzbekiston ishbilarmon ayollar uyushmasi viloyat boʻlimi ham davlat va jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik qilmoqda "Oydin Nur" oilalarga ijtimoiy yordam koʻrsatish Markaziga 2001-2008 yillar davomida odam savdosi va zoʻravonlikka uchragan mijozlar 9.500 marta ishonch telefoniga qoʻngʻiroq qilib, huquqiy, psixologik yordam oldilar. 35 nafar mijoz uchun Markaz sud jarayonlarida ayollar manfaatlarini himoya qilish uchun ijtimoiy himoyachilar sifatida ishtirok etdilar. 2007 yil oktyabridan Markaz huzurida vaqtinchalik boshpana –Shelter faoliyat koʻrsata boshladi. 2007 yil yanvaridan 2008 yilning apreligacha Shelterda 13 nafar ayol va 12 nafar bola boshpana topdi. Jumladan, "Tadbirkor ayol" uyushmasi tomonidan 18 ming nafardan ziyod xotin-qizga biznes yuritish asoslari oʻrgatildi, avval ishsiz boʻlgan 12 ming nafar xotin-qizning kasb-hunar egallashiga koʻmak berildi.[8] Oliy Majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash Jamoat fondi tomonidan 2008-2010 yillarda nodavlat notijorat tashkilotlarning xotin-qizlar, yoshlar va yosh oilalarni kichik va oilaviy biznesga, xususiy tadbirkorlikni boshqa turlariga keng jalb qilishga qaratilgan 20 nafar loyihalari31 qoʻllab-quvvatlandi. Tadqiqot jarayonida mamlakatimizda taʼlimning yangi shakllariga mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda davlat taʼlim muassasalari bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlarining ham ishtirok etayotganligi yoritilib berilgan. Xotin-qizlar oʻrtasida sogʻlom maʼnaviy muhitni shakllantirish, milliy qadriyatlar va anʼanalarni rivojlantirish borasida "Mahalla" ning oʻrni beqiyos ekanligi, fuqarolar oʻzini-oʻzi boshqarish tizimining quyi boʻgʻinida turgan, biroq asosiy vazifani bajaruvchi "Mahalla"ga mustaqillikning dastlabki yillaridanoq boʻlgan eʼtibor va uning huquqiy asoslarini yaratilishi, 2004 yil 25 maydagi 3434-sonli Farmon asosida "Maslahatchi" lavozimining joriy etilishi, mahallada sogʻlom muhit yaratish, ayollar va yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularning bandligini taʼminlash, notinch oilalar bilan ishlash kabilarni amalga oshirishda maslahatchi vazifasining serqirraligi, biroq bu boradagi kamchiliklar Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti direktori Ye.T.Solixonovga TF-3434 farmoniga asosan xotin-qizlar nodavlat notijorat tashkilotlarining mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti va xalqaro xotin-qizlar harakatidagi faol ishtirokiga koʻmaklashish maqsadida Oʻzbekiston xotin-qizlar qoʻmitasida nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish guruhi tashkil etilgan. Xotin-qizlar orasidan tarbiyalanib, voyaga yetgan yangi mulkdorlar Ehtiyojmand xotin-qizlarni oʻqitishda bir qator imtiyozlar berilib, zarur hollarda oʻqish davrida stipendiya bilan taʼminlanadi. Bundan tashqari, bandlikka koʻmaklashish markazlari tomonidan

bitiruvchilarning egallangan mutaxassisligi boʻyicha ishga joylashishi, tadbirkorlik qilishi yoki oʻzini-oʻzi band etish maqsadida subsidiya olishida amaliy koʻmak koʻrsatilyapti. Bugungi kunda 61 260 nafar fuqarolar kasb-hunarga oʻqitishga jalb qilingan boʻlib, shundan vazirlik tasarrufidagi oʻquv markazlarida 17 303 nafar, boshqa davlat taʼlim muassasalarida 30 504 nafar, nodavlat taʼlim muassasalarida 5 162 nafar, usta-shogird anʼanasi boʻyicha 8 291 nafar ish bilan band boʻlmagan fuqarolar kasb-hanar va tadbirkorlikka oʻqitilmoqda. Shundan 39 ming nafarini xotin-qizlar tashkil etadi.

Davlat tomonidan "ijtimoiy shartnoma" tajribasini keng qoʻllash, bunda, avvalo, fuqaro kasb oʻrganishi, ishga joylashishi, oʻzini-oʻzi band qilishi uchun davlat tomonidan moddiy va ijtimoiy koʻmak koʻrsatilishi boʻyicha topshiriqlar berilgan edi. Ana shu topshiriq ijrosini taʼminlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 apreldagi "Davlat mablagʻlari hisobidan band boʻlmagan aholiga berilayotgan subsidiya, grant, nafaqa va boshqa toʻlovlarning maqsadli va samarali ishlatilishini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarori qabul qilindi. Unga koʻra, shu yil 1 maydan 28 ta tanlangan tuman (shahar)da tajriba-sinov tariqasida davlat mablagʻlari hisobidan subsidiya, grant, nafaqa va boshqa toʻlovlar ajratilgan ishsiz fuqarolar, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan band boʻlmagan aholi bilan mahalliy mehnat organlari oʻrtasida ajratilayotgan mablagʻlarning maqsadli ishlatilishi va bu borada taraflarning ijtimoiy masʼuliyatini belgilovchi ijtimoiy kontrakt tuzish amaliyoti joriy etilmoqda. Ushbu tuman (shahar)larda Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasining jami 26,9 milliard soʻm mablagʻlari subsidiya, grant va nafaqalar ajratildi Haqiqatan, Prezidentimiz taʼkidlaganidek, kasb va lavozimlar klassifikatori bugungi zamon va mehnat bozori talablariga mos kelmasdi. Oʻtgan davr mobaynida 2 ming 484 ta, yaʼni 70 foiz xizmatchi lavozimi boʻyicha oliy maʼlumot talab etilgan. Xususan, maʼlumotlar bazasi bilan ishlaydigan mutaxassis, veb-dizayner kabi ixtisosliklarga ham oliy malaka talabi qoʻyilgan. Vaholanki, ushbu kasblarni IT markazlarda yarim yilda yaxshi oʻrganish mumkin. kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlarining rahbarlari qatlami vujudga kelib, rivojlanib borayotganligini esa tom maʼnoda bugungi kunning tarixiy voqeligi deyish mumkin. Xotin-qizlarning taʼlim olishi, va ilmiy salohiyatini oʻstirishi uchun sharoit yaratish davlat tomonidan kafolatlangan. Asosiysi, milliy qonunchiligimizda xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi huquqlarini himoya qilish oʻz aksini topgan. Xotin-qizlar bandligining taʼminlanishida ularning iqtisodiy huquqlarni roʻyobga chiqarish eng asosiy vazifa sifatida yuzaga chiqadi. Bunda xotin-qizlarning mulkka boʻlgan huquqlari, ularning tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash masalasi dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Bu borada 2020-yil 23-oktyabr kuni Senat Raisi Tanzila Narbayeva rahbarligidagi Oʻzbekiston delegatsiyasi "Xotin-qizlar iqtisodiy huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish boʻyicha harakatlarga daʼvat" (Call to Action on Womens Economic Empowerment) mavzusida AQSh Davlat departamenti tomonidan virtual formatda tashkil etilgan xalqaro forumda ishtirok etdi. Vashingtondagi Oʻzbekiston elchixonasi xabar berishicha, forumda 14 ta davlat ishtirok etdi. Xalqaro forum davomida ishtirokchilar xotin-qizlarning iqtisodiy huquqlarini kengaytirish, ularning global iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish, shuningdek, butun dunyoda ayol tadbirkorlarga oʻz imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish uchun teng sharoit va imkoniyatlarni toʻliq yaratish masalalarini muhokama qildilar. Demak, xotin-qizlar oʻrtasida tadbirkorlik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash masalalari nafaqat Oʻzbekistonda, balki jahon hamjamiyatida ham dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqmoqda. Taʼlim-tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligiga doimo amal qilib kelingan sharq

zamini, avvalo, insonparvarlik ma’naviyatiga alohida e’tibor berib kelgan. Zero, insonparvarlik gʻoyalari bilan tarbiyalangan insongina yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida faoliyat olib boradi.

**Адабиётлар/Литература/References:**


1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “Oʻzbekiston”, 2020. 2. Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 21.12.1995
2. Oʻzbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik toʻgʻrisida”gi OʻRQ327-sonli Qonuni., 16.03.2012
3. Ubaydullayeva R.A. Oʻzbekiston bozor munosabatlariga oʻtish sharoitida ayollar va mehnat // Oʻzbekiston ijtimoiy fanlar. -1995. -№ 9. –B. 24, 25; Oʻsha muallif. Исследевание гендерных проблем-важное направление в развити социальных наук в Узбекистане // Oʻzbekistonda oila va jamiyat qurilishida ayollarning roʻli va gender muammolari. – T.: Fan, 1999. 11-16-betlar.
4. Баумгертнер В. Oʻzbek biznesida “ayol qiyofasi”// Ijtimoiy fikr. -1998. - № 1. B. 106-113
5. Муртазина Р.Б. Роль женщин в формировании семьи и в обществе // Oʻzbekistonda oila va jamiyat qurilishida ayollarning roli va gender muammolari. –T.: Fan, 1999. 32-35 betlar; Oʻsha muallif. Основные направления услубления экономических реформ в сфере занятости и социальной зашиты населения // Oʻzbekiston gʻalabalar va gullab yashnash yoʻlida. –T.: Ijtimoiy fikr, 2000. 194-201 betlar.
6. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. “Bandlik”. T, “Oʻzbekiston”, 2000, 667-bet.
7. Майорова Г. Правовой статус женщины в переходный период // Женщины Центральной Азии за мир и стабильность. – Ташкент – Худжант, 2000. – С
8. Немировская О. Экономическое повидение сельских женщин: ориентации, установки, действия. –Т., 2001. –С. 2.
9. Рахимова Н. Конкурентоспособность женской рабочей силы // Bozor, pul, kredit. -2002. -№ 2. С.84-86.
10. Гонорская А. Ayollar nodavlat notijorat tashkilotlari xotin-qizlar bandligini shakillantirish manbai sifatida // Oʻzbekiston xotin-qizlarining oʻtish davri taraqqiyoti va ijtimoiy islohotlardagi ishtiroki. –T.: Ayollar Resurs Markazi, 2002. –B. 53-56.
11. Oʻzbekiston ayollari va erkaklari. Statistik toʻplam / Oʻzbekiston Respublikasi makroiqtisodiyot statistika vazirligi statistika davlat departamenti. – T., 2002. – B. 82. 36. Abdullayeva Ya.A. Qoraqalpogʻiston xotin-qizlari: kecha va bugun (XIX asrning oxiri va XX asr). –T.: Ijod dunyosi, 2004. -223 bet

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V3SI8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/8 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).